

## **YEVROPA ITTIFOQI YASHIL O'SISHI GLOBAL IQTISODIYOTLAR UCHUN MASH'ALADIR**

**Saidmurodov Firdavs Qaxramon o'g'li**  
**JIDU Tashqi iqtisodiy faoliyat fakulteti**  
**Magistratura 1-kurs**  
**Tel 99 143 43 31**  
**firdavsskfu112@gmail**  
**<https://doi.org/10.5281/zenodo.6797937>**

### Annotatsiya

Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Yer shari aholisi ko'payishda davom etyapti, tabiiy resurslar zaxirasi esa muttasil ravishda qisqarmoqda. Bunday disproporsiya dunyo mamlakatlarini tang ahvolga solib qo'yayotgani bor gap. Avvalo, global ekologik muammolarning keskinlashuvini kuzatyapmiz. Ekspertlar vaziyatni o'nglash uchun jahon iqtisodiyotida "yashil taraqqiyot" tamoyillarini joriy etish zarurligini ta'kidlamoqda. Mazkur yondashuv BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarida ham o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Yevropa Ittifoqi, yashil o'sish, yashil iqtisodiyot, Yevropa Komissiyasi, Apollon 11, Yevropa Yashil bitimi.

Yevropa Ittifoqi yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich va ildam qadamlar bilan o'tmoqda va bu o'z o'rnida Yevropada barqaror ish o'rinlarini yaratishning navbatdagi poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Yevropaning atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, Yevropa Ittifoqi Yevropaning iqlimi, biologik xilma-xilligi, ifloslanishi, iqtisodiy, siyosiy va sog'liqni saqlash inqirozini hal qilish uchun mo'ljallangan Yashil bitimi bilan yetakchilik qilmoqda. 2020-yilning iyul oyida Yevropa Ittifoqi yetakchilari qit'aning iqlim o'zgarishini moliyalashtirish uchun 1,8 trillion yevro miqdoridagi paketni moliyalashtirishga kelishib oldilar. Yevropa Komissiyasi prezidenti Ursula fon der Leyen 2050-yilga borib Yevropa dunyodagi birinchi iqlimga betaraf qit'a bo'lishini istashini e'lon qildi. Jon Kennedining oy zarbasi haqidagi e'lonidan keyingi yillar "Apollon 11"ni qurishga sarflanganidek, keyingi bir necha yil Yevropa Yashil bitimi ish o'rinlari va o'sish nuqtai nazaridan nimani anglatishini ishlab chiqishga sarflanadi.

Biroq, Yevropa Ittifoqi manfaatdor tomonlar kapitalizmining yangi davriga kirayotgani allaqachon aniq. Ushbu o'n yillikdagi o'sish o'tmishdan uch jihatdan farq qilishini aytib o'tishimiz mumkin. Birinchi navbatda maqsadga asoslanganligi jihatidan, ya'ni COVID-19 dan tiklanish nafaqat xususiy investitsiyalar, balki ifloslanishni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish hamda transport, qurilish, oziq-ovqat va umuman iqtisodiyotning boshqa

sohalari uchun ham kam emissiya alternativlarini ishlab chiqish kabi strategik maqsadlarga yo'naltirilgan davlat investitsiyalarining alohida darajalari hisobiga amalga oshiriladi. Ikkinchidan, barqarorligi bo'yicha, ya'ni bu toza havo va suv, yaxshi salomatlik, yangilangan tabiiy muhit va hayot sifatini yaxshilash kabi maqsadlarga asoslanadi. Shuningdek so'nggi - uchinchi farqi bu strategiklik bo'lib, bunda ayrim sektorlar va korxonalar strategik ahamiyatga ega deb belgilangan va ularga sarmoya kiritish rejalashtirilgan. Masalan, qishloq xo'jaligi, vodorod, binolarni ta'mirlash, dengizdagi shamol energiyasi va aylanma iqtisodiyot uchun Yevropa strategiyalari ishlab chiqilmoqda.

Hozir institutsional darajada bo'lib o'tayotgan munozara Yevropa Yashil bitimining iloji boricha samarali bo'lishiga hamda barcha Yevropa manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va ustuvorliklariga javob berishiga qanday ishonch hosil qilishdir. Yevropa Yashil bitimining ish o'rinlari uchun qanday ahamiyatga egaligi hamda nimani anglatishi haqida gapiradigan bo'lsak, uning muhim qismi uning ish o'rinlarini yaratish qobiliyati bo'ladi.

2020-yil oktabr oyida o'tkazilgan Yevropaning jozibadorligi puls tadqiqoti "European Attractiveness pulse survey" da barqarorlik va iqlim o'zgarishiga e'tibor investorlar fikricha keyingi uch yil ichida eng tez o'sayotgan ikkinchi tendensiya sifatida namoyon bo'ldi. Qisqa muddatda butun qit'ada energetika, transport, qurilish, sanoat va qishloq xo'jaligi sohaslariga sarmoya kiritishga tayyor bo'lgan minglab loyihalar mavjud. Yevropa iqlim jamg'armasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan EY tadqiqotida ularning ko'pi aniqlangan. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, ular jami 200 milliard yevro sarmoyani tashkil qiladi va 2,3 million ish o'rni yaratishi mumkin - 2020-yilda pandemiyadan ularning taxminan chorak qismi yutqazdi.

Biz regeneratsiya, qayta ishlash va qayta tiklanadigan energiya kabi jadal rivojlanadigan sohalarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, energetika sohasida biz 75 milliard yevrolik 374 ta loyihani aniqladik, bu esa bir milliondan ortiq ish o'rni bilan ta'minlash va 464 million tonna chiqindilarni tejash imkonini beradi. Ularga kengaytirilgan elektr uzatish va tarqatish tarmoqlari, quyosh batareyasi Gigafactory va Isroil, Gretsiya va Kipr o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kiradi.

Transport sohasida umumiy qiymati 87 milliard yevro bo'lgan 217 ta loyiha yana bir million kishini ish bilan ta'minlashi mumkin, bu esa yana 1490 tonna chiqindilarni tejash imkonini beradi. Ular elektr transport vositalari uchun zaryadlash infratuzilmasi, shahar transport tizimlarining ekologik samaradorligi va elektr kemalari, vodorod taksilari va boshqalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shift2Rail uchun ishlab chiqilgan prognoz hisobotida EY Yevropa Ittifoqi temir yo'l transporti tizimining raqobatbardoshligini oshirishni kutgan. 4-6

million to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ish o'rinlarini yaratishi va 2050 yilga kelib 6-8 metrik tonna karbonat angidrid (MtCO<sub>2</sub>- Metric tons of carbon dioxide)ni kamaytirishi mumkin.

Ushbu loyihalar kelajakdagi o'sish sohalariga ko'rsatma beradi va bu o'n yillikda imkoniyatlar qayerda bo'lishini ko'rsatadi. Kelgusi COP26 ga tayyorgarlik davom etar ekan, biz bundan ham ko'proq narsani ko'ramiz.

Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlari, qayta tiklanadigan texnologiyalar va boshqalar kabi yangi ko'nikmalarni talab qiladigan qiymatga asoslangan barqarorlik tashabbuslari o'sib boradi. 2020-yillarda o'sish uchun asosiy tarmoqlar allaqachon ko'rinib turibdi, ya'ni bular yashil energiya va transport, energiyani yangilash loyihalari va nol uglerodli qurilish materiallari. 7-iyun kuni boshlanadigan EY Yevropa jozibadorligi tadqiqoti 2021 investorlar barqarorlikni kelajakdagi investitsiya loyihalarida, masalan, uglerod chiqindilari va chiqindilarini kamaytirishga ko'proq e'tibor qaratish yoki toza energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali qanday aks ettirish niyatida ekani haqida yangi tushunchalar beradi.

O'tmishdagi rag'batlantirish paketlaridan bir saboq shundan iboratki, muvaffaqiyat to'rt-besh yildan kam bo'lmagan vaqtda yuzaga chiqadi, aynan o'sha paytda baholanishi kerak. Yevropaning, katta va kichik kompaniyalari shuningdek, qanday qilib uglerodga nisbatan qay tarzda neytral bo'lishlarini o'zlari hal qilishadi. Ko'pchilik uchun bu ko'kalamzorlashtirish orqali o'sadigan qiymatga asoslangan barqarorlikka sodiqlikni ifodalaydi.

Bu vaziyatda hamkorlik albatta muvaffaqiyat kaliti bo'la oladi. Hech bir tashkilot yakka o'zi Yevropa Yashil bitimining ulkan maqsadlariga erisha olmaydi va adolatli o'tishni amalga oshirish uchun hech kimni ortda qoldirmasdan, adolatli yo'l bilan sodir bo'ladigan iqlimga betaraf iqtisodiyotga o'tishda amalga oshirilgan hamkorlik asosiy kalit bo'lib xizmat qiladi. O'sishning ushbu yangi davrida davlat, xususiy va uchinchi sektorlar innovatsiyalar, amaliy bilim, ko'nikma va tajribalarini tarqatish va kelajakning yashil sanoati va ish o'rinlarini yaratish uchun kuchlarini birlashtirishi kerak.

#### Xulosa

Qisqacha qilib aytganda, Yevropa 2050-yilga kelib iqlim neytral bo'lgan dunyodagi birinchi qit'aga aylanadi. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan sektorlarda maqsadli va barqaror o'sish bu yangi davrni va kelajakdagi ish o'rinlarini qayta belgilab beradi. Yevropa Ittifoqining 1,8 trillion yevrolik paketi 2050 yilga kelib iqlim neytral bo'lgan dunyodagi birinchi qit'a bo'lish orqali Yevropaning iqlim o'zgarishi muammosini hal qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi deyishimiz mumkin. Yevropa yashil yangi kelishuvining ish o'rinlarini

yaratish maqsadi sarmoyalarni jalb qiluvchi ko'plab asosiy loyihalar bilan to'liq mos keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [https://assets.ey.com/content/dam/ey-sites/ey-com/en\\_gl/topics/assurance/assurance-pdfs/ey-green-recovery-report.pdf](https://assets.ey.com/content/dam/ey-sites/ey-com/en_gl/topics/assurance/assurance-pdfs/ey-green-recovery-report.pdf)
2. [https://www.ey.com/en\\_gl/attractiveness/20/how-is-uncertainty-reframing-the-future-of-investment-in-europe](https://www.ey.com/en_gl/attractiveness/20/how-is-uncertainty-reframing-the-future-of-investment-in-europe)
3. <https://rail-research.europa.eu/>
4. <https://www.switchtogreen.eu/the-eu-green-deal-promoting-a-green-notable-circular-economy/#:~:text=The%20European%20Green%20Deal%20aims,a%20just%20and%20inclusive%20transition.>
5. <https://ec.europa.eu/environment/green-growth/>
6. <https://www.eu-startups.com/2021/07/what-is-moonshot-thinking-and-how-can-i-use-it-in-my-startup/>